Ilm-fani yo’q qilingan davlat jaholatga yuz tutadi

(Facebook ijtimoiy tarmogida elon qilingan “Fanlar akademiyasi bizga kerakmi” nomli videomurojaatga javoban)

Ilmda tanaffus bo’lmaydi deydilar. Olim ilmiy kashfiyot yoki ilmiy ishlanma qilishi uchun bir necha, hatto o’n yillab shu tadqiqot ustida izlanadi. Kerak bo’lsa butun umrini shunga bag’ishlaydi. Zero, ilm, olimlik va bu yo’l g’oyat mashaqqatli hamda og’ir yo’l. Bejiz xalqimiz ilm o’rganishni “igna bilan quduq qazish”ga qiyoslamagan. Olim hech qachon o’rganishdan, izlanishdan to’xtamaydi.

Avvalo, Fanlar akademiyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligining vazifalarini saralab olaylik.

2019-yil 29-noyabrdagi O’zbekiston Respublikasining “Fan to’g’risida”gi Qonunining 7-moddasida Fanlar akademiyasining, shuningdek, ushbu Qonunning 6-moddasida Innovatsion rivojlanish vazirligining vazifalari va vakolatlari aniq belgilab berilgan. Demak, Fanlar akademiyasi respublika bo’yicha emas, balki, o’z tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy faoliyati uchun mas’uldir.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-fevraldagi “Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti qoshida “O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazini tuzish to’g’risida”gi PQ-1927-sonli qaroriga muvofiq Fanlar akademiyasi tasarrufidagi bu institut faoliyati tugatilgan. Shunday ekan, Fanlar akademiyasi tomonidan bank tizimi va iqtisodiyot sohasidagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmaydi.

O’zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari ham hattoki pandemiya sharoitida ham ilmiy izlanishlar to’xtagani yo’q. Ular tomonidan mamlakat ilm-fani rivojiga qaratilgan ilmiy izlanishlar bisyor va bu har bir yo’nalishda amaliy ifodasini topmoqda. Ayniqsa, so’nggi yillarda Fanlar akademiyasiga qayta e’tibor qaratilib, Davlatimiz Rahbari va Hukumatimiz tomonidan yanada qo’llab-quvvatlanganidan so’ng qator ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

Dunyo miqyosida birinchi marta kremniy dioksidi nanozarrachalari asosida chang va nam qo’nmas qatlamlar olish texnologiyasi hamda tibbiyotda qo’llaniladigan izotoplarni siklotron va yadro reaktorida ishlab chiqish texnologiyasi yaratildi;

materiallarni gamma nurlari bilan radiatsiyaviy qayta ishlash texnologik tizimi yo’lga qo’yildi;

sterillangan tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari, ichimlik suvini tozalash va zararsizlantirish qurilmalari, radioizotoplarni ishlab chiqarish amalga oshirildi;

saraton kasalligini davolash uchun yangi lyutetsiy-177 radioizotop mahsulotini ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi;

biologik namunalardan virus RNKsini ajratib olish to’plami va qon kasalliklarni aniqlash PZR diagnostikumi yaratildi;

GMO-nishonlarni aniqlovchi PZR reaktivlar to’plami ishlab chiqildi;

mahalliy xom-ashyo asosida bir qator dori moddalari substansiyalarini, shu jumladan, 5 xildagi tayyor dori moddalar va 4 xildagi generik-moddalarni ishlab chiqarish o’zlashtirildi. Biologik faol substansiyalar va bioreaktivlarni mamlakatimiz farmatsevtika sanoatiga yetkazib berish hamda Rossiya, Fransiya va AQShga eksport qilish yo’lga qo’yildi;

birinchi marotaba O’rta Osiyo uzum selektsiyasining 203 navlarini birlamchi genetik pasportlari tuzildi;

O’zbekistonda birinchi marta SARS-CoV-2 virusining 32 ta namunasi genomlari o’qildi;

suv va gidroenergetika inshootlarining seysmik holatini baholash bo’yicha ekspress uslubiyoti ishlab chiqildi;

Sharqiy O’zbekiston va O’zbekiston markaziy qismining faol yer yoriqlari morfologiyalariga va maydon uzra joylashuviga yangilangan xaritalari tuzildi va hududlarning seysmotektonik modellari ishlab chiqildi;

neytronlarning yadro bilan ta’sirlashishini hisobga olgan holda namunaning ichki tuzilishini o’rganishga imkon beradigan neytron radiografiyasi va tomografiyasi qurilmasi yaratilib, ishga tushirildi;

issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning yangi dasturlashtirilgan matematik modeli yaratildi;

keramik infraqizil nurlanish ta’sirida texnik glinozem olish texnologiyasi yaratildi va an’anaviy usullarga nisbatan 5-7 barobar kam tannarxga erishildi. Turg’un suv havzalaridan radioaktiv seziyni ajratib olish texnologiyasi yaratildi;

Quyosh sandonida eritilgan mahalliy xom-ashyo – kaolin asosida nanokatalizatorlar va sanoatda ishlatiladigan keramik tashuvchi elementlar tayyorlandi;

astronomiya bo’yicha ta’lim beradigan oliy o’quv yurtlarida 6 ta o’quv-ilmiy observatoriyalar barpo etildi;

gidrotexnik inshootlarni xavfsiz ekspluatatsiya qilish bo’yicha qo’llanma ishlab chiqildi;

yaqin yillarda seysmik faollashadigan hududlar aniqlandi va O’zbekiston seysmik xaritasi ishlab chiqildi;

Yevropa, Yaponiya, Rossiya va Qirg’iziston olimlari bilan Markaziy Osiyo va Kavkazorti xalqlariga mansub bo’lgan 20 dan ortiq etnos (milliy guruh) larning genetik tadqiqotini o’tkazish natijasida Markaziy Osiyo aholisining DNK banki tuzildi. Respublikaning viloyatlari bo’yicha immunologik va genetik xaritasi va pasporti yaratildi;

Osiyo qit’asida oldin fanga noma’lum bo’lgan 30 dan ortiq o’simlik turlari kashf etildi. Eng zamonaviy yondashuvlar asosida O’zbekistonning botanik-geografik xaritasi yaratildi, o’simliklar qoplamini tasniflash va o’zgarishlarni bashoratlashning elektron tizimi joriy etildi;

O’zbekiston hududidan 108 yil oldin terilgan va hozirda yo’qolib ketgan turning gerbariy namunasidan DNK ajratib olindi;

Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlari to’plamining 3 jildi tayyorlandi. Yangilangan “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati”ning 1-jildi nashr etildi;

5 jildli “O’zbek tilining izohli lug’ati”, “Xalqaro atama elementlarning izohli-illyustrativ lug’ati”, “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo’llanmasi nashr qilindi;

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan 20 dan ortiq radioizotoplar ishlab chiqarilib mamlakatimiz tibbiyot muassasalariga yetkazib berilmoqda va eksport qilinmoqda.

O’zbekistonda istiqomat qilayotgan 35 milliondan ortiq aholining xavsizligini ta’minlashga qaratilgan “O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi Qonun Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan ishlab chiqildi.

Fanlar akademisi ilmiy laboratoriyalarida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan FA tomonidan tegishli ilmiy yo’nalishlarda nashr etilayotgan 20 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallar orqali tanishish mumkin.

Shu bilan birga, jahonning yetakchi ilmiy jurnallarida bizning olimlarimiz tadqiqotlari e’tirof etilayotganligi hamda ularning natijalari bilan ham bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda hech qanday qiyinchiliklarsiz tanishish mumkin.

Ta’kidlash joizki, yuqorida sanab o’tilgan ilmiy yutuqlar so’nggi 5 yil ichidagi (2 yil pandemiya sharoitida) amalga oshirilgan va bunday ilmiy yutuqlarni yana ko’plab keltirish mumkin. O’ylaymizki, tanazzul yoqasiga kelgan hamda e’tibordan chetda qolgan bir tizimning uyg’onish davridagi dastlabki 5 yiliga arzirli natija bo’lsa kerak.

Biror-bir tizim faoliyati haqida keng jamoatchilikka fikr bildirishdan oldin ushbu tizim tasarrufida mavjud va ularning ilmiy faoliyati bilan tanishish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz. Qolaversa, ilm yo’lidagi “olim”ning ilm-fan yangiliklaridan bexabar holda o’z nuqtai nazaridan kelib chiqib ilm-fan haqida fikr bildirishi Fanlar akademiyasi tomonidan hech qanaqa ilmiy izlanishlar, amaliy faoliyat olib borilmadi degani emas. Ta’kidlash joizki, o’zingiz ham shu mashaqqatli yo’lda yuribsiz, bu yo’lning achchiq-chuchchigini totyapsiz, uning zalvorli yukini his qilyapsiz, va o’ylaymizki, kashfiyot yoki ilmiy yangilik qilish olimdan qancha vaqt talab qilishini to’g’ri anglaysiz.

Shunday ekan, hozirgi butun dunyo uchun sinovli bo’lgan kunlarda hamjihat bo’lib, respublikamiz rivojida yo’lida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz kerak. Zero, “Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, illat izlaganga illatdir dunyo...”.